

AUDITORLIK FAOLIYATIDA FIRIBGARLIKNI BAHOLASHDA XALQARO STANDARTLAR TALABLARI QO'LLANISHINING DOLZARB MASALALARI

Sirojiddinov Ikromiddin Qutbiddinovich

Professor

Abdug'offorov G'olibjon Abdug'ofurovich

Talaba Namangan davlat texnika universiteti

Annotatsiya: *maqolada auditorlik tekshiruvida firibgarlikni milliy standartlar asosida baholashda xalqaro standartlar talablari qo'llanishidagi dolzarb masalalar tadqiq etilgan.*

Kalit so'zlar: *audit, auditorlik faoliyati, moliyaviy hisobotlar, moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari, auditning xalqaro standartlari, buxgalteriya hisobining milliy standartlari, auditning milliy standartlari, firibgarlik.*

Moliyaviy firibgarliklar muammosi hozirgi zamon bozor iqtisodiyotida dolzarb muammolardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayni paytda an'anaviy ko'rinishdagi audit va korporativ boshqaruvning tartib-taomillari xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni ataylab amalga oshiriladigan firibgarliklardan to'laqonli himoya qila olmaydi. Shu o'rinda audit tekshiruvlari jarayonida moliyaviy firibgarliklarning oldini olishga, ochib-tashlashga va qayd etishga qaratilgag maxsus yondashuvlar va taomillarning ishlab chiqilishi joriy etilishi va amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ma'lumki, moliyaviy hisobotlar auditining birlamchi maqsadi moliyaviy hisobotlarda qayd etilgan ma'lumotlarning haqqoniy va ishonchli ekanligi borasida auditorning fikrini ifoda etishdir. Shu nuqtai nazardan moliyaviy firibgarlik moliyaviy hisobotlardagi ma'lumotlarning buzib ko'rsatilishida, aktivlarning talon-taroj qilinishida va korrupsion mazmundagi operatsiyalarda namoyon bo'ladi. Auditorlik faoliyatida firibgarlikka nisbatan munosabat 240-sonli Audit xalqaro standarti "Moliyaviy hisobotlar auditidagi firibgarlikka nisbatan auditor majburiyatlari" da belgilab berilgan (2009 yilning 15 dekabrda yoki ushbu sanadan keyin boshlanadigan davrlar uchun moliyaviy hisobotlarning auditiga nisbatan kuchga kirgan).

Mazkur standartning 3-moddasi moliyaviy hisobotlar auditi nuqtai nazaridan firibgarlik tushunchasini izohlab beradi. Unga ko'ra moliyaviy hisobotlardagi buzib ko'rsatishlar firibgarlik yoki xato natijasida yuzaga kelishi mumkin. Firibgarlik bilan xato o'rtasidagi farqlovchi omil moliyaviy hisobotlarning buzib ko'rsatishiga olib keladigan asosiy harakat qasddan qilinganligi yoki qasddan

qilinmaganligidir. Umuman olganda firibgarlik keng yuridik tushuncha. Shunga qaramasdan, moliyaviy hisobotlar haqqoniy ekanligi borasida fikr bilirilishi nuqtai nazaridan, auditor moliyaviy hisobotlarda muhim buzib ko'rsatishlarga sabab bo'ladigan firibgarlik bilan shug'ullanadi. Shuning uchun firibgarliklarning ikki turi auditor tomonidan ko'rib chiqilishi o'rinli bo'ladi – yolg'on moliyaviy hisobot berishdan kelib chiqadigan buzib ko'rsatishlar va aktivlarni noqonuniy o'zlashtirishdan kelib chiqadigan buzib ko'rsatishlar. Firibgarlik sodir bo'lganligini haqida auditor shubha qilishi, tegishli harakatlarni amalga oshirishi yoki firibgarlikni aniqlashi ham mumkinligiga qaramasdan, auditor firibgarlik haqiqatda sodir bo'lganligini yuridik jihatdan aniqlamaydi.

240-sonli AXSning 10-moddasiga binoan firibgarlikni aniqlashda auditorning maqsadlari;

(a) Firibgarlik oqibatida moliyaviy hisobotlarning muhim buzib ko'rsatishi risklarini aniqlash va baholash;

(b) O'rinli javob harakatlarini ishlab chiqish va amalga oshirish orqali, firibgarlik oqibatidagi muhim buzib ko'rsatishning baholangan risklariga nisbatan yetarli va tegishli auditorlik daliliga ega bo'lish;

(v) Audit mobaynida aniqlangan firibgarlik yoki shubhali firibgarlikka tegishli tartibda munosabat bildirish.

240-sonli AXSning 10-moddasiga binoan firibgarlik – rahbariyat, boshqaruv yuklatilgan shaxslar, xodimlar yoki uchinchi shaxslar orasidan bitta yoki bir nechta shaxslar tomonidan aldash yo'li bilan noxaqqoniy va noqonuniy manfaat ko'rish maqsadida ataylab qilinadigan xarakat. Firibgarlik riski omillari esa firibgarlikni rag'batlantiruvchi yoqi sodir etishga majburlovchi yohud firibgarlik qilish imkoniyatini yuzaga keltiruvchi voqealar va sharoitlardir.

Auditor o'zining oldingi tajribasidan tadbirkorlik sub'ektining rahbariyati va boshqaruv yuklatilgan shaxslarining vijdonliligi va haqqoniyligiga guvoh bo'lishiga qaramasdan, firibgarlik oqibatidagi muhim buzib ko'rsatish imkoniyati mavjud bo'lishi mumkinligini tan olgan holda, audit mobaynida professional skeptitsizmni saqlash lozim.

Moliyaviy firibgarlikda xo'jalik operatsiyasi shaklan qonuniy ko'rinishda amalga oshiriladi va korrupsion mazmun niqoblangan bo'ladi.

Amaldagi qonunchilikka binoan firibgarlikni oldini olish va aniqlashning majburiyati tadbirkorlik sub'ektining boshqaruv zimmasidadir. Boshqaruv yuklatilgan shaxslarning bu boradagi faoliyatida firibgarlikni oldini olishga kuchli e'tibor qaratilishi muhim, bu firibgarlik sodir bo'lishi imkoniyatini kamaytiradi va firibgarlikdan saqlanishga olib keladi. Ayni paytda bunday vaziyatda fosh etilish va jazolanish ehtimoli tufayli shaxslarni firibgarlikni sodir etmaslikka undab turadi. Boshqacha qilib aytganda, bu xodimlarda vijdonlilik va ahloqiy fe'l-atvor

madaniyatini mustahkamlab turadi. Shu jihatdan auditor boshqaruv yuklatilgan shaxslar tomonidan kuzatuv me'yorlarni chetlab o'tish yoki boshqa moliyaviy hisobot berish jarayoniga noo'rin ta'sir o'tkazish ehtimolini ko'rib chiqishi lozim bo'ladi.

240-sonli Audit xalqaro standarti "Moliyaviy hisobotlar auditidagi firibgarlikka nisbatan auditor majburiyatlari"ning 5-moddasiga binoan AXS larga muvofiq auditni amalga oshirayotgan auditor moliyaviy hisobotlar butun holatda firibgarlik yoki xato sabab bo'lishi mumkin bo'lgan muhim buzib ko'rsatishdan holi ekanligi bo'yicha oqilona ishonch bildirishga ega bo'lishga javobgardir. Auditning o'ziga xos cheklovlari tufayli, hattoki audit AXS larga muvofiq to'g'ri rejalashtirilgan va amalga oshirilgan bo'lsa ham, moliyaviy hisobotlarning ba'zi muhim buzib ko'rsatishlari fosh etilmasligi mumkinligining muqarrar riski mavjud.

Barcha operatsiyalarning mazmun-mohiyatini batafsil o'rganish imkoniyati cheklanganligi uchun auditor operatsiyalar amalga oshirilishidagi qator belgilarga e'tibor qaratishi lozim bo'ladi.

Ichki nazorat tizimi faoliyatining korxona mol-mulki daxlsizligi ta'minlashga, firibgarliklar va mulkni o'zlashtirishga real qarshi qaratilganligi, amaldagi qonunchilik bilan hamohangligi.

Biznes uchun xarakterli bo'lmagan operatsiyalar.

Biznes uchun xarakterli, lekin biznes ko'lamlariga xos bo'lmagan operatsiyalar.

Korxonada menejment faoliyati uchun o'rnatilgan qoidalar doirasidan tashqaridagi operatsiyalar.

Menejment tomonidan amaldagi qonunchilikka rioya etilmasligi hollari.

Korxonaga ochiqdan-ochiq zarar keltirayotgan operatsiyalar.

Aktivlarning o'g'irlanishi va korrupsiya moliyaviy firibgarlikning eng keng tarqalgan turlaridir. Korxona rahbariyatining va oddiy xodimlarning nomunosib harakatlari tovarlarni va xizmatlarni pasaytirilgan baholarda sotishda va boyliklarni oshirilgan baholarda sotib olishda, ombordagi boyliklarnimayda o'g'irlashlarda, shuningdek korxona oliy boshqaruvining moliyaviy lo'ttibozliklarida namoyon blishi mumkin.

Auditor moliyaviy hisobotlardagi ko'rsatkichlardagi muhim buzilishlar firibgarlikmi yoki xato sabab sodir bo'lganmi kabi savoolarga javob izlashiga to'g'ri kedadi. Chunki busiz moliyaviy hisobotlarning muhim buzib ko'rsatishlardan holi ekanligi bo'yicha oqilona ishonch bildira olmaydi. Boshqa tomondan esa auditorlik faoliyatidagi qonunda belgilab qo'yilgan o'ziga xos cheklovlar tufayli, hattoki audit AXS larga muvofiq to'g'ri rejalashtirilgan va amalga oshirilgan bo'lsa ham,

moliyaviy hisobotlardagi ba'zi muhim buzib ko'rsatishlari aniqlanmasligi muqarrar riski mavjudligicha qolaveradi.

Yuridik niqoblangan mayda o'g'irliklar shaklidagi nomunosib harakatlar uzoq vaqt ko'zga tashlanmasligi va korxona faoliyati uchun nisbatan sezilmayroq turishi mumkin. Lekin, ularning hajmlari yig'ilib borshgani sari firibgarlar ko'rilayotgan zararlarni yashirishlari zaruriyati kuchayadi, ma'lumotlar soxtalashtiriladi, axborot buzib ko'rsatishga intilishlar vujudga keladi. Bunday hollarda firibgarlikka yo'l qo'ygan xodimlar moliyaviy hisobotlarni buzib ko'rsatishda "ijodkorlik" ko'rsatishlariga to'g'ri keladi. Moddiy boyliklar o'g'irlanishi xarajatlar ortishi orqali yoki past baholarda sotish ko'rinishida, pul mablag'lari esa asossiz debitor qarzlar orqali pardalanadi. Shular orqali korxonaning moliyaviy ahvoli qoniqarli ekanligi haqida tasavvur shakllantiriladi.

Korrupsiya rahbarlar yoki oddiy xodimlarning xizmat mavqeidalanib amalga oshiradigan harakatlari bo'lib, korxona manfaatlariga zid ravishda moliya-xo'jalik operatsiyalariga ta'sir o'tkaziladi va buning evaziga noqonuniy mablag'larni qo'lga kiritadilar.

To'g'ridan-to'g'ri moliyaviy firibgarlik bo'lmayotgan, lekin pirovard natijada korrupsion maqsadlarni ko'zlovchi harakatlar ham mavjud. Ularga moliyaviy hisobotlar ma'lumotlarini buzib ko'rsatishlar ham kiradi. Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash tartibi qonunchilikda qat'iy belgilab qo'yilgan. Shunday bo'lsada ularni tayyorlovchi shaxslar "ijodiy" yondoshgan holda professional mulohazaga asoslanib, muayyan maqsadlarni ko'zlagan holda moliyaviy hisobotdagi ko'rsatkichlarda tuzatishlarga yo'l qo'yadilar. Albatta, moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda amaldagi qonunchilik talablaridan chetga chiqish tegishli ma'muriy va jinoiy javobgarlikka olib keladi.

240-sonli AXSning 7-moddasi auditorning rahbariyat firibgarligidan yuzaga keladigan muhim buzib ko'rsatishni fosh etolmaslik riski xodimlar firibgarligidan yuqoriroq ekanligini, chunki rahbariyat bevosita yoki bilvosita jurnal yozuvlarini o'zgartirish, firibgarlikka asoslangan moliyaviy ma'lumotlarni taqdim etish, yoki boshqa xodimlar sodir etadigan o'xshash firibgarliklarni oldini olishga mo'ljallangan nazorat tartib-tamoillarini chetlab o'tish vaziyatida tez-tez bo'lib tura olishini tahkidlaydi. Shuning uchun 8-moddaga ko'ra moliyaviy hisobotga ishonch bildirishda auditor rahbariyatning nazorat tartib-tamoillarini chetlab o'tish imkoniyatlarini ko'rib chiqqan holda hamda xatoni fosh etishda samarali bo'lgan auditorlik tartib-tamoillari firibgarlikni fosh etishda samarali bo'lmaslik mumkinligini tan olgan holda, audit mobaynida professional skeptitsizmni saqlashi lozim va javobgardir.

Shunday qilib, moliyaviy hisobotlar auditi olib borilishida moliyaviy hisobotlar ma'lumotlari taqdim etilishi bilan bog'liq firibgarliklar alohida o'rin egallaydi. Ularga quyidagilar misol keltirilishi mumkin:

hisobot davri tugagan bo'lsa ham registrlardagi yozuvlar yakunlanmaganligi;
shartnomalar operatsiyalar bo'lib o'tgandan keyin tuzilganligi;
soxta sotuvlar va yetkazib berishlar haqida yozuvlar; daromadlarning noto'g'ri turkumlanishi;

chegirmalarning har xil taqdim etilishi;
jo'natilgan mahsulot bo'yicha daromadning noto'g'ri tan olinishi;
uzoq muddatli bitimlar bo'yicha bajarilgan ishlar foizini oshirib yoki kamaytirib ko'rsatilishi;

bitim yoki shartnomalarning ularning qonunchilikda belgilangan rasmiy shakllariga rioya qilmasdan tuzilganligi;

soxta asosiy vositalar;

olingan aktivlar qiymatining oshirib ko'rsatilishi;

kelgusi davrlar xarajatlarining asossiz oshirib ko'rsatilishi;

xarajatlarning noto'g'ri yoki noo'rin kapitallashtirilishi;

gudvil va nomoddiy aktivlar qiymatining yetarli asoslanmaganligi;

investitsiyalarning noto'g'ri turkumlanishi;

debitor qarzlar oshirib ko'rsatilishi yoki soxta debitorlik;

kreditor qazlarni kamaytirib ko'rsatilishi;

balansdan tashqari schetlardagi chalkashliklar;

ustav kapitaliga ulushlar kiritilishida adolatli baholardan foydalanmaslik;

muhim moddalar bo'yicha axborotning ochib berilmasligi.

Moliyaviy hisobotlar haqqoniyligi va ishonchligi borasida fikr bildirilishida firibgarlik tufayli vujudga keladigan auditorlik riski kamaytirilishi jarayoni uchun nazoratlarning muhimligi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Umumiy monitoring nazoratlari (masalan rahbariyat kuzatuv).

- Firibgarlikni oldini olish va fosh etish ustidan nazoratlar.

- Ahamiyatli hisob siyosatlarining tanlanishi va qo'llanilishi ustidan nazoratlar.

- O'zaro bog'liq tomonlar bilan yirik operatsiyalar ustidan nazoratlar.

- Tadbirkorlik sub'ekti biznesining odatiy yo'nalishidan tashqarida bo'lgan yirik operatsiyalar ustidan nazoratlar.

- Davr oxiri moliyaviy hisobot jarayoni ustidan nazoratlar (masalan, takrorlanmaydigan buxgalteriya yozuvlari ustidan nazoratlar).

- Nazoratlardagi kamchiliklar natijasida fosh etilgan istisnolarning sababi va davriyligi.

- Kamchilikning ichki nazoratdagi boshqa kamchiliklar bilan o'zaro aloqasi.

200-sonli AXSda izohlanganidek, qonunchilikda auditorlik faoliyati uchun belgilangan o'ziga xos cheklovlarining potensial oqibatlari ayniqsa firibgarlikdan yuzaga keladigan buzib ko'rsatish holatida ayniqsa yaqqolroq namoyon bo'ladi. Firibgarlikdan yuzaga keladigan muhim buzib ko'rsatishni fosh etolmaslik riski xatodan yuzaga keladigan muhim buzib ko'rsatishni fosh etolmaslik riskidan yuqoriroqdir. Chunki firibgarlik uni yashirishga mo'ljallangan murakkab va ehtiyotkorona ishlab chiqilgan rejalar bo'yicha amalga oshirilishi mumkin, jumladan, soxtalashtirish, operatsiyalarni qasddan aks ettirmaslik, yoki auditorga ko'rsatish uchun ataylab tayyorlangan noto'g'ri taqdimotlar. Bunday harakatlar til biriktirib amalga oshirilganda ularning fosh etilishi yanada qiyinroq bo'ladi.

Auditorning firibgarlikni fosh eta olishi qonunbuzarning mahorati, firibning davriyligi va ko'lami, til biriktirishning darajasi, firib qo'llangan alohida miqdorlarning nisbiy hajmi va firibgarlikda qatnashgan shaxslarning yoshi kabi omillarga bog'liq bo'ladi. Auditor sodir etiladigan firibgarlik uchun potensial imkoniyatlarni aniqlashi mumkin, lekin bu firibgarlik bilan xatoni farqlay olishga yordam bermasligi mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Buxgalteriya hisobi to'g'risida Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining Auditorlik faoliyati to'g'risida Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 sentyabrdagi PQ-3946-son qarori
4. Buxgalteriya hisobining milliy standartlari.
5. Audit milliy standartlari.
6. Abdulazizovich, K. U. B., & Tursunpolatovna, N. N. (2023). Improving Reflection Of Information About Cash And Equivalents In The Accounting Balance Sheet On The Basis Of International Standards. *Journal of Survey in Fisheries Sciences*, 10, 2107-2114.
7. Ubaydullaev, T., & Holmirzaev, U. (2018). PECULIARITIES OF TAXATION OF INDIVIDUALS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Экономика и социум*, (11 (54)), 54-57.
8. Abdulazizovich, X. U. B. (2024). MOLIYAVIY AKTIVLAR TASNIFINI TAKOMILLASHTIRISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(2), 82-86.
9. Abdulazizovich, X. U. B. (2023). Moliyaviy aktivlar hisobini yuritishda xalqaro standartlar qoidalarini qo'llash masalalari. Ilmiy monografiya. Toshkent-2023.

10. Xolmirzayev, U. A., & Xakimova, G. A. (2024). SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH TIZIMI. Экономика и социум, (5-1 (120)), 938-941.
11. Abdulazizovich, X. U. B. (2025). BILIMLAR IQTISODIYOTI SHAKLLANISHINING USTUVOR YO 'NALISHLARI. Journal of new century innovations, 74(2), 65-70.
12. Abdulazizovich, X. U. B., & Abdullajanovich, U. T. (2024). SANOAT ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT YO 'NALISHLARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 41(5), 17-21.
13. Qutbiddinovich, S. I., & Abdulazizovich, X. U. B. (2023). GAAP ASOSIGA QO'YILGAN MOLIYAVIY HISOB KONTSEPTSIYALARI. Interpretation and researches, 1(3), 42-50.
14. Kamalov, A. A., & Xolmirzayev, U. A. (2016). Small business and private entrepreneurship in Uzbekistan. Questions of Economics and Management, 5(7), 6.
15. Khakimov, B. J., Alimov, B. B., Kholmirzayev, U. A., & Polechov, A. X. (2013). theory of Economic Analysis. Tashkent" economics-finance" – 2013.
16. Abdulazizovich, K. U. (2023). POSITIVE ASPECTS OF THE CASH METHOD IN SMALL ENTERPRISES UNDER UNUSUAL CIRCUMSTANCES. ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 8.071, 12(11), 38-47.
17. Xolmirzayev, U. A., & Xakimova, G. A. (2023). XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTlarda DEBITOR QARZLARINING AYLANISHI TAHLILIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTlarda DEBITOR QARZLARINING AYLANISHI TAHLILIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.
18. Kholmirzaev, U. B. A., & Ubaydullayev, T. A. (2023). Improving the classification of financial assets according to the economic content. Educational Research in Universal Sciences, 2(1), 203-209.
19. Khakimov, J. B., & Kholmirzayev, A. U. (2021). Positive Aspects Of Cash Method In Small Enterprises In The Context Of Pandemic. Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry, 12(7).
20. Abdulazizovich, X. U. B. (2025). INNOVASION FAOLIYATNING MOLIYAVIY TA'MINOTINI KUCHAYTIRISH ZARURLIGI VA OMILLARI TAHLILI. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 5(03), 142-146.
21. Xolmirzayev, U. B. (2023). Bilimlar iqtisodiyoti va fan sohasi tushunchalari tizimining xususiyatlari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 1(11-12).
22. Xolmirzayev, U. B. (2024). Bilimlar iqtisodiyoti jamiyat taraqqiyotini zamonaviy bosqichining asosidir. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(6).

23. Xolmirzayev, U. B., & Hakimova, G. Z. (2024). SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHNING MOLIVAVIY MEKANIZMI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 10, 96-98.
24. Xolmirzaev, U. B. A., & Madaliev, M. R. (2023). MOLIVIY HISOBOTLARNING QAYTA KO 'RIB CHIQILISHIDA XALQARO TALABLARGA RIOYA ETILISHI ZARURLIGI. Educational research in universal sciences, 2(3), 424-432.
25. Hakimov, B. J., Alimov, B. B., Xolmirzayev, U. A., & Polatov, A. X. (2013). Iqtisodiy tahlil nazariyasi. T: "Iqtisod-Moliya" -2013.
26. Abdulazizovich, X. U. B., & Muhabbat, N. (2024). INCREASING COMPETITIVENESS IN THE COMMODITY MARKET IN INDUSTRIAL ENTERPRISES. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 42(1), 197-206.
27. Холмирзаев, У. А. (2023). ДЕБИТОР ҚАРЗЛАРИНИ АЙЛАНИШИ ТАҲЛИЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ: ДЕБИТОР ҚАРЗЛАРИНИ АЙЛАНИШИ ТАҲЛИЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ.
28. Холмирзаев, У. А., & Самижонов, Ш. С. (2022). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТРАЖЕНИЯ ДЕНЕГ В БУХГАЛТЕРСКОМ БАЛАНСЕ. Экономика и социум, (5-2 (92)), 755-766.
29. Холмирзаев, У. А., & Камолдинов, О. О. (2022). АСПЕКТЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ ИНФОРМАЦИИ О ДЕБИТОРСКОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ ПО ОБОРОТНЫМ СРЕДСТВАМ В БУХГАЛТЕРСКОМ БАЛАНСЕ. Экономика и социум, (5-2 (92)), 767-779.
30. Abdulazizovich, X. U. B. (2025). BILIMLAR IQTISODIYOTI SHAKLLANISHINING USTUVOR YO 'NALISHLARI. Journal of new century innovations, 74(2), 65-70.
31. Xolmirzayev, U. B. (2023). Bilimlar iqtisodiyoti shakllanishi evolyutsiyasini tavsiflovchi nazariy yondashuvlar. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 1(10).
32. Isomukhamedov, A., Kholmirzayev, U., Tursunov, U., Ergashev, I., Aliyeva, G., Karimova, S., & Nadirov, U. (2025). USING AI ENTERPRISE EXPENSES PREDICTION AND BUDGETING MECHANISMS. Reliability: Theory & Applications, 20(SI 10 (88)), 365-371.
33. Xolmirzayev, U. B., & Ubaydullayev, T. O 'zbekiston Respublikasida Davlat-xususiy Sheriklik Sohasida Me'yoriy-huquqiy Bazani Ishlab Chiqish. Green Economy and Development, 3(10), 667114.
34. Batirova, R., & Xolmirzayev, U. B. Ulgurji Savdo Qoidalari Va Chakana Savdodan Farqli Tomonlari. Green Economy and Development, 3(9), 666890.

35. ХОЛМИРЗАЕВ, У., & КАМОЛДИНОВ, О. ЭКОНОМИКА И СОЦИУМ. ЭКОНОМИКА, 625-627.
36. Isomuhamedov, A. (2023). ORGANIZATION OF ACCOUNTING IN STRUCTURES OF A SMALL BUSINESS IN THE CONSTRUCTION FIELD. INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 17(12), 27-32.
37. Сирождидинов, И. К., & Исомухамедов, А. Б. (2022). Развитие экспортной направленности сельскохозяйственного производства.
38. Muradova, N. (2023). APPLICATION OF ITALIAN EXPERIENCE IN THE DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESSES AND ENTREPRENEURSHIP IN THE FUTURE. ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 8.071, 12(04), 24-28.
39. Muradova, N. Kichik Biznesni Rivojlantirishga Oid Xorijiy Mamlakatlarning Ilg 'or Nazariyalari Va Yondashuvlari. Green Economy and Development, 3(11), 667831.
40. Hakimova, D. (2025). INNOVATSIYA VA INNOVATION SALOHİYATNING PEDAGOGIK AHAMIYATI. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari, 204-208.
50. Baxrom o'g'li A. F. PRELIMINARY SOIL ANALYSIS OF BIOLOGICAL RECULTIVATION LANDS.
51. Baxrom o'g'li A. F. PRELIMINARY SOIL ANALYSIS OF BIOLOGICAL RECULTIVATION LANDS.